

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
NAVOIY DAVLAT KON-TEXNOLOGIYA UNIVERSITETI**

NURMURODOV LOCHIN TIRKASHEVICH

**QIZILQUM TOG‘ OLDI HUDUDIDAGI TABIIY VA TEXNOGEN
OBYEKTЛАRNING RADIATION KO‘RSATKICHLARI MONITORINGI**

01.04.01 – Eksperimental fizikaning asboblari va usullari

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract
of the doctor of philosophy (PhD) on technical sciences**

Nurmurodov Lochin Tirkashevich

Qizilqum tog‘ oldi hududidagi tabiiy va texnogen ob‘ektlarning radiatsion ko‘rsatkichlari monitoringi..... 3

Нурмуродов Лочин Тиркашевич

Мониторинг радиационных показателей природных и техногенных объектов в предгорных районах Кызылкума 23

Nurmurodov Lochin Tirkashevich

Monitoring of radiation indicators of natural and technogenic objects in the foothills of Kyzylkum..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
NAVOIY DAVLAT KON-TEXNOLOGIYA UNIVERSITETI**

NURMURODOV LOCHIN TIRKASHEVICH

**QIZILQUM TOG‘ OLDI HUDUDIDAGI TABIIY VA TEXNOGEN
OBYEKTЛАRNING RADIATION KO‘RSATKICHLARI MONITORINGI**

01.04.01 – Eksperimental fizikaning asboblari va usullari

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4810 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Sh.Rashidov nomigagi Samarqand davlat universiteti va Navoiy davlat kon-texnologiya universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.inp.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muzafarov Amrullo Mustafaevich
kimyo fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xujayev Saydaxmad
texnika fanlari doktori, professor

Xudayberdiev Eliboy
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. tel. (+99871) 289-31-41; faks (+99871) 289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. tel. (+99871) 289-31-19.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ da tarqatildi.
(2025-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reystr bayonnomasi).

M. Yu. Tashmetov,
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

O.R. Tojiboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.-m.f. PhD, katta ilmiy xodim

E.M. Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning barcha mamlakatlarida tuproq, suv, havo va o‘simliklar tarkibidagi radioaktiv elementlarning miqdorlari va lokal hududlardagi radiatsion ko‘rsatkichlarning doimiy monitoringi olib boriladi. Radioaktiv elementlarning miqdorlari va radiatsion ko‘rsatkichlar kattaliklarini har bir lokal hudud uchun aniqlash usullarini takomillashtirish va bu takomillashtirilgan usullarni amaliyotga qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish hudud radioekologik holatini ilmiy-eksperimental asosda nazorat qilishda katta ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda jahonda tog‘ oldi hududlar va texnogen obyektlardagi radiatsion ko‘rsatkichlar monitoringining yadro-fizik usullar ishonchliligini oshirish va bu hududlardagi aholi va ishchi-xodimlarga radiatsion ta‘sirni kamaytirish bo‘yicha tegishli ilmiy yechimlarni asoslash - bu obyektlardagi ekspozitsion doza quvvati - EDQ, radonning ekvivalent muvozanat hajmiy aktivligi - REMHA, uzoq yashovchi radionuklidlarning - UYaAR o‘rtacha yillik hajmiy aktivligi, iste‘mol qilinadigan ichimlik suvining aktivligi hisobiga ichki nurlanishning qiymatlarini aniqlash natijasida bu hududlardagi aholi va ishchi-xodimlarning o‘rtacha yillik effektiv doza qiymatlarini tadqiq qilish, bu kattaliklarni baholash uchun qo‘llaniladigan radiometrik usullar majmuasini takomillashtirish va amaliyotga qo‘llash zarur.

O‘zbekistonda tog‘ oldi hududlar va texnogen obyektlardagi radiatsion ko‘rsatkichlar monitoringining yadro-fizik usullarini ishlab chiqish va bu hududlardagi aholi va ishchi-xodimlarga radiatsion ta‘sirni kamaytirish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga qo‘llash zarurligi bo‘yicha nazariy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Bunga misol qilib 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining uchinchi yo‘nalishi bo‘yicha ilg‘or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarning joriy qilinishini ko‘rsatish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalari va lokal suv tozalash inshootlarini o‘rnatish hamda mavjudlarini modernizatsiya qilish, 14 ta ekologik toza hudud rejimini joriy qilish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-sonli “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energotejamkorlik va muqobil energiya manbalari” hamda IV. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, suv muammolari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tog‘ oldi hududlar va texnogen obyektlardagi radiatsion parametrlarni yadro-fizikaviy usullar yordamida monitoring qilish bo‘yicha tadqiqotlar ko‘plab xorijiy olimlar, shu jumladan, hindistonlik

(Surinder Singx, Asha Rani, Kumara S., Ramola V. va boshqalar), avstraliyalik (Doering Che, Riaz Akber, Henk Heijnis, Metyu Barnett J. va boshqalar), isroillik (Kawasi M. va boshqalar), taylandlik (Pungtip Kaewtubtim, Weeradej Meeinkuirt, Sumalee Seepom, John Pichtel va boshqalar), misrlik (Saleh I.H., Abdel-Halim A.A. va boshqalar), koreyalik (Kim G.H., Lee H.K., Cho J.H. va boshqalar), braziliyalik (F.T.Concei, D.M.Bonotto, J. R.Jiménez-Rueda va boshqalar), rossiyalik (Tembotov R., Gangapshev A., Gezhaev A., Abakumov Ye., Buldakov L.A., Fityushkin I.V., Voronov S.N., Aleksandrov R.M. va boshqalar), yevropalik (A.M.Blebea-Apostu, R.M.Margineanu, D.Persa, D.G.Dumitras, M.C.Gomoiu va boshqalar), o'zbekistonlik (Muminov T.M., Azimov A.N., Bazarbayev N.N., Muminov I.T., Kungurov F.R., Safarov A.A., Xalikulov Z.A., Xudoyberdiyev A.T., Mashrapov R., Juraqulov M.D., Zueva O.V., Mamedov Ye.D., Trofimov G.N., Xolmatov M.U., Alibekov L.A. va boshqalar) va boshqa mutaxassislar tomonidan olib borilmoqda.

Ushbu tadqiqotlar keng ko'lamli masalalarni qamrab oladi, jumladan, tuproqning ustki qatlamlarida kosmogen radionuklidlarning hosil bo'lishi, tuproqning vertikal qatlamlarida tabiiy radionuklidlarning taqsimlanishi, shuningdek, ichki radiatsion yuklamani baholash. Ko'rsatkichlar, masalan, ekspozitsion doza quvvati (EDQ), radonning ekvivalent muvozanatli hajmiy aktivligi (REMHA), uzoq yashovchi radionuklidlarning o'rtacha yillik hajmiy aktivligi (UYaAR), ichimlik suvidagi radionuklidlarning aktivligi – ushbu hududda yashovchi aholining soni hisobga olingan holda aniqlanadi va texnogen obyektlarda ishlovchi xodimlarning yillik samarali dozalari bilan taqqoslanadi. Alohida e'tibor qo'llanma yadro fizikasi sohasiga qaratilgan bo'lib, u ekologik tizimlarda radiatsiyani monitoring qilish, radiatsion xavfsizlik usullarini ishlab chiqish, shuningdek, qishloq xo'jaligi, tibbiyot va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida yadro texnologiyalarini joriy etishni o'z ichiga oladi.

Shunga qaramay, tog'li hududlar va Qizilqum texnogen obyektlarida radiatsion holat hali yetarlicha o'rganilmagan. Shu bilan birga, ushbu parametrlarning yillik effektiv doza ko'rsatkichlari bilan korrelyatsiyasi ham kam tadqiq etilgan, shuningdek, mazkur hududlarda radiatsion ta'sirni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar mavjud emas. Ushbu jihatlarni tadqiq qilish radiatsion xavfsizlikning samarali strategiyalarini ishlab chiqish va aholining sog'ligini ta'minlash uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Navoiy davlat kon-texnologiya universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № BA-A-13-015 “Mahalliy reagentlar yordamida uranni yerosti yuvish texnologik rejimini ishlab chiqish” (2020-2022) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qizilqum tog' oldi hududidagi tabiiy va texnogen ob'ektlarining radiatsiyaviy holatini baholash hamda ushbu hududdagi aholi va ishchi xodimlar tomonidan olinadigan o'rtacha yillik effektiv dozalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tadqiqot joylarini tanlash, bunda asosan inson ta'siri kam bo'lgan yani texnogen ta'sirlar kam bo'lgan xududlarni tadqiqot xududi sifatida olish;

tuproq namunalari olish va tahlil qilish, bunda tuproqning vertikal qatlamlari bo'yicha tabiiy va kosmogen radionuklidlarning tarqalishini o'lchash;

yer osti suvlaridagi Rn-222 radionuklidining solishtirma hajmiy aktivligini o'lchash va tahlil qilish;

havo tarkibidagi yer sirtidan bug'lanib chiquvchi Rn-222 radionuklidining birlik vaqt ichida birlik yuzadan chiquvchi aktivligini aniqlash;

tog' oldi hududlarida yashovchi va texnogen obyektlarda ishlovchi ishchi-xodimlarning olishi mumkin bo'lgan yillik effektiv doza qiymatlarini baholash va solishtirish;

to'plangan ma'lumotlar sharhini yig'ish va ularning hisobotini tayyorlash.

Tadqiqotning ob'ektlari sifatida tog' oldi hududlari, texnogen ob'ektlar, ekotizim namunalari - tuproq, suv, havo, o'simliklar va ^{232}Th , ^{226}Ra , ^{222}Rn , ^{40}K , ^7Be - radioaktiv elementlari olingan.

Tadqiqotning predmetini radiatsion ko'rsatkichlar, radiometrik tahlil usullari, radiometrik qurilmaning metrologik xarakteristikalari, o'rtacha yillik effektiv doza va radioekologik radiatsion holat tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: radiometriya, dozimetriya, alfa, beta, gamma-spektrometriya kabi yadro-fizik usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

birinchi marta ssintillyatsion gamma – spektrometrda namunalarda sirt zichliklarini hisobga oluvchi ASW dasturini qo'llagan holda tuproq tarkibidagi radionuklidlarning solishtirma aktivliklarini aniqlash uslubi ishlab chiqilgan;

Qizilqum tog' oldi hududlaridagi va texnogen obyektlardagi havo atmosferasidagi uzoq yashovchi radionuklidlarning hajmiy aktivlik qiymatlarining bir-biridan keskin farq qilishi aniqlangan va bu qiymatlarning farq qilishiga sabab havo atmosferasidagi aerozollar konsentratsiyasi ekanligi topilgan;

tadqiqot hududi ichimlik suvining radiatsion ko'rsatkichlar qiymatlarining kattaligi shu hudud tuproqlaridagi radioaktiv elementlar konsentratsiyasi kattaligiga proporsional bog'liqligi eksperimental tajribalar yordamida aniqlangan;

tadqiqot hududidagi texnogen ob'ektlar xodimlari va aholi uchun, gamma-nurlanishning hamda havo va suvdagi radionuklidlar tufayli hosil bo'lgan ichki nurlanishning kompleks ta'sirini hisobga olgan holda, birinchi marta o'rtacha yillik effektiv dozalar hisoblab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot hududidan olingan tuproq, suv va havo tarkibidagi radionuklidlarning solishtirma aktivliklari aniqlangan;

tadqiqot hududlari tuproqlarida ^{40}K , ^{232}Th , ^{226}Ra va ^{222}Rn kabi radioaktiv elementlar va radionuklidlar tarqalishi, bu hududlar ichimlik suvlaridagi solishtirma $\sum\alpha$ va $\sum\beta$ hajmiy aktivlik qiymatlari va tadqiqot hududi havo atmosferasida ekspozitsion doza quvvati, radonning ekvivalent muvozanat hajmiy aktivligi, uzoq yashovchi radionuklidlarning o'rtacha yillik hajmiy aktivligi aniqlangan;

tog' oldi hududi aholisi va texnogen obyektlarda ishlovchi ishchi-xodimlarning olgan yillik effektiv doza qiymatlari aniqlangan;

texnogen obyektlardagi ishchi-xodimlarni rotatsiya qilish yo'li bilan yillik effektiv doza qiymatini pasaytirish mumkinligi tavsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ma'lum hajmdagi nazariy va laboratoriya tadqiqotlari natijalarining olinganligi, zamonaviy usullar va o'lchash asboblarining qo'llanilganligi, ishlab chiqilgan usullar yordamida olingan natijalarning xalqaro standart namunalari natijalari bilan solishtirilganligi, parallel tahlillar o'tkazilganligi va har xil tadqiqotchilar va laboratoriyalar natijalarining o'zaro solishtirilganligi bilan isbotlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tog' oldi hududlari va texnogen obyektlardagi radiatsion ko'rsatkichlarni aniqlashning takomillashtirilgan α , β , γ - radiometrik usullarining qo'llanilishi, bu hudud aholisi va texnogen obyektlarda ishlovchi ishchi-xodimlarning qabul qilgan yillik effektiv doza miqdorini shu hududlar havo atmosferasidagi EDQ, REMHA, UYaAR va ichimlik suvlaridagi solishtirma $\sum\alpha$ va $\sum\beta$ – hajmiy aktivlik qiymatlariga bog'liqlik sabablarini ochishga asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati radiometrik va dozimetrik tahlil usullarini takomillashtirish, o'rganilayotgan hududlarning tuproqlari va ichimlik suvida radioaktiv elementlar va radionuklidlarning tarqalishini, shuningdek atmosferada EDK, REMHA, UYaAR parametrlarini aniqlashdan iborat. Natijalar yillik samarali nurlanish dozasini, shu jumladan texnogen ob'ektlarda xodimlarning aylanishini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qizilqum hududi tog' oldi va texnogen obyektlaridagi radiatsion ko'rsatkichlar monitoringining yadro-fizik usullari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sintillyatsion gamma-spektrometrda ASW dasturidan foydalangan holda tuproqdagi radionuklidlarning solishtirma aktivligini aniqlash uchun uslubi ishlab chiqilgan, havo atmosferasidagi uzoq yashovchi radionuklidlarning hajmiy aktivlik qiymatlari "NKMK" AJda amaliyotga joriy etilgan ("Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasining 2024 yilning 09 apreldagi №758-sonli dalolatnomasi). Natijada tuproqlar tarkibidagi radioaktiv elementlar va radionuklidlarni kompleks tahlil qilish imkoniyati yaratilgan;

O'rganilayotgan hududlarda ichimlik suvining radiatsiyaviy ko'rsatkichlarining eksperimental o'rnatilgan qiymatlari hamda texnogen ob'ektlar xodimlari va hudud aholisi uchun hisoblangan o'rtacha yillik effektiv dozalari qiymatlari "NKMK" AJda amaliyotga joriy etilgan ("Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasining 2024 yilning 09 apreldagi №758-sonli dalolatnomasi). Natijada tadqiqot hududi ichimlik suvlaridagi solishtirma hajmiy aktivlik qiymati ishchi-xodimlarning yillik effektiv doza miqdoriga bog'liqligini baholash hamda shchi-xodimlarni rotatsiya qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta maqola, shundan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Ilmiy ish tuzilmasi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 109 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi, zarurati, maqsadi va vazifalar, tadqiqotning usullari, obyektlari, predmeti, respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqotning amaliyotga tadbiqu, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tabiiy va texnogen radionuklidlarni o'lchash usullarining hozirgi holati va texnogen obyektlar xodimlari tomonidan olinadigan yillik doza qiymatlari”** deb nomlangan birinchi bobida ya'ni aholi yashash xududlaridagi tuproq tarkibidagi tabiiy radioaktiv radionuklidlarning (^{230}Th , ^{226}Ra va ^{40}K) tarqalishi, atmosfera havosiga yer sirtidan chiquvchi ^{222}Rn oqimi zichligini aniqlashning gamma-spektrometrik usuli, yerosti suvlaridagi ^{222}Rn solishtirma hajmiy aktivligini aniqlashning barbotaj usullari, tuproqning yuza qatlamlarida kosmogen ^7Be radionuklidi tarqalishining ko'plab dunyo olimlari tomonidan aniqlangan radiatsion monitoring ishlar tahlili va shu bilan birgalikda tabiiy va texnogen hududlarda aholi va xodimlar uchun yillik effektiv doza qiymatini hisoblash usullari havo atmosferasidagi kosmogen o'lchash va texnogen obyektlarda ishchi xodimlarning yillik olishi mumkin bo'lgan nurlanish doza qiymatlarining bugungi kundagi holati o'rganilgan va tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektlaridan olingan tuproq namunalari tarkibidagi radionuklidlar miqdori va yillik effektiv doza qiymatini hisoblash metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tabiiy radionuklidlarning miqdorlari, ularni gamma-spektrometrik usul yordamida qurilmada aniqlash metodlari va ulardan olingan spektrlarning qayta ishlash metodlari keltirilgan.

Shu bilan birgalikda tajriba maydonlarining geografik joylashuvi va iqlimi tuproqning vertikal qatlamlaridan va yuza qismidan, yer sirtiga yaqin havo qatlamidan hamda yerosti suvlaridan namunalari olish metodikasi, namunalarning γ -spektrlarini o'lchash va γ -spektrlarni qayta ishlash usullari mufassal berilgan.

Bundan tashqari havo atmosferasida ekspozitsion doza quvvati, Radonning ekspozitsion muvozanat hajmiy aktivligi hamda uzoq yashovchi aerosol radionuklidlarning ekvivalent dozalarini o'lchash metodikasi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qizilqum tog‘ oldi hududlaridan olingan tuproq va suv namunalari tarkibidagi radionuklidlar miqdori”** deb nomlangan uchinchi bobida 10-30 sm chuqurlikdagi tuproq qatlamlarida tabiiy radionuklidlarning aktivligi va radon oqimining zichligi tadqiq qilingan va quyidagi natijalar olingan.

1-jadvalda o‘rganilayotgan hududlarning alohida maydonchalari va joylarida TaRN o‘rtacha aktivligi – A, radon oqimi zichligi va tabiiy fonning ekvivalent doza quvvati - EDQ qiymatlari, shuningdek ularning o‘zgarishlar $f = A_{max}/A_{min}$ fluktuatsiyalari keltirilgan.

Olingan natijalar dunyoning boshqa mintaqalaridagi natijalar bilan o‘zaro taqqoslangan, Masalan: Istanbulga tutashgan 12 aholi punktida – $A_{Ra} = 39$ (30-46), $A_{Th} = 57$ (48-67) va $A_K = 940$ (720-1200) Bk / kg, Belorussiyadagi 9 ta sinov maydonchasida – $A_{Ra} = 21$ (15-27), $A_{Th} = 7,2$ (7-9) va $A_K = 525$ (213-660) Bk / kg, Qozog‘iston Respublikasining Oqmo‘la viloyatidagi uran koniga yaqin joylashgan uchta uchastkada – $A_{Ra} = 153$ (65-249), $A_{Th} = 97$ (50-144) va $A_K = 950$ (700-1500) Bk / kg va o‘rganilayotgan obyektlar tuproqlarida tabiiy radionuklidlar aktivligi 1-jadvaldagi natijalarga ko‘ra hamda ularning fluktuatsiya qiymatlari ^{40}K uchun $f = 1,9$, ^{226}Ra - $f = 2,6$ diapazonda o‘zgarib turishi va joylarda ularning o‘rtacha qiymatlaridagi farqlar $f = 2$ ga yetishi topilgan. Tog‘ etaklarida ularning qiymatlari qiyaliklarga qaraganda biroz yuqoriroq ekanligi topilgan.

1-jadvalda - TaRN bilan solishtirganda, o‘rganilayotgan hududlarda $f = 5$ kengroq diapazonda o‘zgarib turadi va ularning qiymatlari "QORATEPA", "DOVON" va "HISOR" etagidagi hududlarda minimal bo‘lishi topilgan. Avstraliyaning turli qismlarida oqim zichligi $^{222}Rn = (13-264)$ mBk/m²s bo‘lsa Nurobod tumanidagi Zirabuloq tog‘laridan olingan namunalarda - ^{222}Rn aktivligi - $A = (<5 - 120)$ Bk/dm³ ekan. Radon-222 ning uran minerallari ostidagi jinslarning yoriqlari va g‘ovaklari bo‘ylab hosil bo‘ladi. So‘ngra tuproq qatlami orqali atmosferaga chiqadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, uran minerallarining yotqizilgan jinslardagi konsentratsiyasi, yoriqlarning tarqalishi va ularning paydo bo‘lish chuqurligi, tuproq qoplaminig qalinligi va uning holati relyefning turli qismlarida va turli joylarida sezilarli chegaralarda o‘zgarib turadi.

Aholi punktlarida ROZ, EDQ ning o‘rtacha qiymatlari va ^{222}Rn (ona ^{226}Ra radionuklidi) aktivligi o‘rtasidagi bog‘liqlikka e‘tibor qaratish talab qilinadi.

1-jadvalda tadqiq etilgan tabiiy radionuklidlar solishtirma aktivligining o‘rtacha qiymatlari, radon oqimining zichligi hamda tabiiy fonning ekvivalent dozasi quvvati – EDQ qiymatlari keltirilgan. Bu tadqiq etilgan tabiiy radionuklidlar solishtirma aktivligining o‘rtacha qiymatlari, radon oqimining zichligi hamda tabiiy fonning ekvivalent dozasi quvvati – EDQ qiymatlaridan ko‘rinadiki 5 ta hududda bu qiymatlar o‘zaro farq qilar ekan.

Tadqiq etilgan tabiiy radionuklidlar solishtirma aktivligining o‘rtacha qiymatlari, radon oqimining zichligi hamda tabiiy fonning ekvivalent doza quvvati (EDQ) qiymatlari

Joylar nomi va EDQ (D -(mZv/soat))	Namuna maydonlari	\bar{A} , Bk/kg			^{222}Rn mBk/m ² s
		^{226}Ra	^{232}Th	^{40}K	
NUROTA (0,27)	S1-S21	45	54	840	103
	P1, P2	37	51	820	64
QORATEPA (0,17)	S1-S15	31	40	646	57
	S1, P2	25	48	712	47
DOVON (0,22)	S1-S6	30/1,7	41/1,8	620	46
	S1-S4	33/2	35/1,6	545	54
	P1, P2	41	50	720	86
CHAKIL (0,22 - 0,24)	S1-S15	53	48	650	91
HISOR (0,20)	S1-S3	25	42	740	58
	S4-S11	23	44	700	-
	S12	25	45	730	-
	S13-S15	44	40	786	80
	P1	37	57	850	20
	P2	39	60	900	-
	P3	48	35	790	-
	P4	41	67	1100	37

2-jadvalda ^7Be 2018 yildagi zaxiralarining NUROTA, QORATEPA va ChAKIL tuproqlaridagi qiymatlari keltirilgan. 2018 yildagi ^7Be zahiralari 2019 va undan oldingi yillardagi ma’lumotlardan keskin farq qiladi. Sababi 2018-yil nihoyatda quruq bo’lgan (O‘zbekiston Respublikasi gidrometeorologiya xizmatlari ma’lumotlariga ko‘ra, Samarqand shahrida 2018-yilning yanvar-avgust oylarida 137 mm yog‘ingarchilik tushgan bo‘lsa, 2017-yilda 288 mm, 2019-yilda esa 370 mm yog‘ingarchilik bo‘lgan.) Natijada “NUROTA” va “QORATEPA” qurg‘oqchil hududlarida havoning changlanishi, quruq yog‘ingarchilik bilan ^7Be cho‘kish intensivligini keltirib chiqaradi, 2018-yil ko‘p marta oshdi va nam “ChAKIL” da havoning changligi odatdagi darajada qoldi.

Bundan ko‘rinadiki tog‘ yonbag‘ridagi maydonda ^7Be zaxirasi qiymatlari bir-biri bilan namlanganlik darajasi bo‘yicha korrelyatsiyalanadi – o‘ta namlangan P4 da ularning zaxirasi maksimal, namlangan – P2 da esa ular kamayadi, “Quruq” – P1 da minimal.

2018 yildagi ⁷Be zaxiralarining tadqiqot obyektlari tuproqlaridagi qiymatlari

Namuna olingan joylar	Namuna olingan maydonlar	R, mm/yil	Yil	⁷ Be \bar{q}/f kBk/m ²
NUROTA	S1-S21	250-500	2018	0,44/2,5
			2019	0,17/ 3,4
	P1, P2		2018	0,70-0,82
			2019	0,30-0,35
QORATEPA	S1-S15	250-500	2007	0,17-0,24
			2018	0,33/2,5
	P1, P2		2019	0,18 /5,3
			2018	0,48-0,56
DOVON	S1-S6	880	2019	0,24-0,40
			2019	0,14-0,22
	S1-S3		2019	0,57/2,6
			2019	0,60/2,5
P1, P2	2019	0,81/1,4		
	S4	2019	0,87	
CHAKIL	S1-S15	880	2019	0,09/ 4,1
			2018	0,65/1,6
			2010	0,80-1,10
HISOR	S1-S3	>700	2017	0,49/1,5
	S4-S11			0,17/1,5
	S12			0,36
	S13-S14			0,20/1,4
	P1			0,44
	P2			0,57
	P3			0,52
	P4			0,71

Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari bog‘liqlikni ko‘rsatdi.

- KRN ⁷Be zaxiralarining qiymatlaridagi yog‘ingarchilikning intensivligi bo‘yicha aholi punktlari tuproqlaridagi farqlarning kattaligi va darajasi, yomg‘irli yillarda esa ular nam yog‘ingarchilik zonalarida ustunlik qiladi, va quruq yillarda - quruq va tuproq jarayonlarining intensivligi yerning alohida hududida – tog‘ yonbag‘irlarda - eroziya, yerlarda - cho‘kindi; ammo ular baland tog‘larda maksimal, past tog‘larda minimal bo‘ladi.

²²²Rn ning tabiiy suvlardagi aktivligi yerosti suvlaridagi tog` jinslaridan chiqadigan radon konsentratsiyasi va ochiq yuzaga chiqqandan keyin ularning gazsizlanish jarayonlarining intensivligi bilan belgilanadi.

Namunalarning ushbu faolligiga muvofiq (3-jadval):

- “NUROTA”, “QORATEPA” da buloqlar, “DOVON” da yerosti suvlari Pangatsoy, sug‘orish joyi va Omonqo‘tonsoydagi tegishli suv namunalari qaraganda ko‘proq;

- “HISOR” dagi oqim manbayi quyi oqimdan 2 baravar ortiq;

-Tanxozdaryodan olingan namunaga kelsak, uning aktivligi aniqlanadigan minimal qiymatdan past daryoning kanal bo‘ylab tez oqimi, ko‘p sonli oqimlar bilan suvlarning deyarli to‘liq gabsizlanishiga olib keladi;

- Radon oqimlarining intensivligi, boshqa omillarga qo‘shimcha ravishda, uning tuproq qoplaminig qalinligi va holatiga bog‘liq;

- karst kelib chiqishining tabiiy suvlarida radonning faoliyati ochiq yuzaga chiqqandan keyin dastlabki faoliyati, ularning yo‘qolish jarayonlarining intensivligi va davomiyligiga bog‘liq.

3-jadval

Tadqiqot hududlari suv namunalarida ²²²Rn aktivligi

Namuna maydonlari	Namuna	A, Bk/dm ³
NUROTA	V1 buloq	65
	V2 Pangatsoy daryosining manbayi	5
QORATEPA	V1 buloq	50
	V2 suv bilan	12
DOVON	V1 karst oqimi	85
	V2 Omonqo`tonsoy daryosining manbayi	7
HISOR	V1 oqim manbayi	38
	V2 daryo oqimining pastki qismi	16
	V3 Tanxoz daryosi	<5
²²² Rn ning tabiiy suvlardagi hajmiy aktivligi		60

Bu yerda hududlar bo‘yicha radon miqdori sezilarli darajada farqlanishini ko‘rish mumkin, karst oqimlari va buloqlarda yuqoriroq radon darajasi kuzatiladi. Bu holat radonning geologik manbalar va gidrologik sharoitlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Qizilqum tog‘ oldi hududi aholisi va texnogen obyektlarda faoliyat olib boruvchi xodimlar tomonidan olingan yillik effektiv doza qiymatlari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida tadqiqot hududlaridagi aholi va ishchilarning olishi mumkin bo‘lgan yillik effektiv doza qiymatlari eksperimental o‘rganilgan.

Barcha radiatsiyaviy omillardan yillik yig‘indi effektiv doza to‘rt komponentdan iborat bo‘lib, ular quyidagicha aniqlanadi:

$$\sum E = E_1 + E_2 + E_3 + E_4 \quad (1)$$

bunda E₁-gamma nurlanishining yillik effektiv (ekvivalent) dozasi bo‘lib u quyidagicha hisoblanadi:

$$E_1 = 5,3 \cdot 10^{-2}(P_\gamma - P_\phi) \quad (2)$$

bunda R_γ - bu joyning kuzatuv nuqtasida, yer yuzasidan yoki poldan 1m balandlikda, mkr/soat larda o‘lchanadi, gamma nurlanishining o‘rtacha yillik ekspozitsion doza

quvvati (EDQ); R_f - yer yuzasi xarakteristikasidan 1 m balandlikda fon qiymati bu sohada bir joyning kuzatish nuqtasi.

E_2 - radonning ekvivalent muvozanat hajmiy aktivligi (REMHA) qiymati tufayli ichki nurlanishdan effektiv doza quvvati quyidagicha aniqlanadi:

$$E_2 = 2,01 \cdot 10^{-2} (S_f - S_{rf}) \quad (3)$$

bunda S_f - turar-joyni kuzatish nuqtasida radonning o'rtacha yillik qiymati, Bk/m^3 ; S_{rf} - turar-joyni kuzatish nuqtasida radonning mos ravishda (REMHA) fon qiymatlari, Bk/m^3 .

E_3 - havoning aerosol fraksiyalarida uzoq yashovchi alfa-radionuklidlar (UYaAR) aktivligi tufayli ichki nurlanishning effektiv dozasi quyidagicha aniqlanadi:

$$E_3 = 2,8 \cdot 10^{-2} [(S_1 - R_1 \cdot S_2) - (1 - R_1) \cdot S_3] \quad (4)$$

bunda S_1 - aholi punktining kuzatish nuqtasi havosidagi o'rtacha yillik umumiy alfa aktivligi, Bk/m^3 ; S_2 , S_3 - aholi punktining kuzatish nuqtasi havosidagi umumiy va o'ziga xos alfa aktivligining fon qiymatlari, Bk/m^3 ; R_1 - shamol tezligining ma'lum bir maydon uchun 3m/s gacha bo'lgan tezligi; T - ta'sir qilish vaqti.

E_4 - iste'mol qilinadigan ichimlik suvi aktivligi tufayli ichki nurlanishning effektiv dozasi quyidagicha aniqlanadi:

$$E_4 = 1,6 \cdot 10^{-3} \cdot S_v \cdot V_v \quad (5)$$

bunda S_v - ichimlik suvidagi radionuklidlarning o'rtacha yillik umumiy alfa va beta aktivligi, Bk/l ; V_v - aholi uchun iste'mol qilinadigan ichimlik suvining yillik hajmi, u $V_v = 800 l$ ga teng.

Ushbu omillarning eksperimental ta'riflariga asoslanib, uran ishlab chiqarish ta'siri sohasidagi aholi uchun yillik effektiv dozani hisoblash mumkin (4 - jadval).

4 - jadval

Radiatsiya omillarini eksperimental aniqlash natijalariga ko'ra Nurobod aholi yashash punktlarida har bir aholining yillik oladigan umumiy effektiv doza qiymatlari berilgan

№ namuna soni	Tashqi gamma nurlanishining effektiv dozasi - E_1 (EDQ) mZv/yil	Radonning ekvivalent effektiv muvozanat hajmiy dozasi (REHMA) - E_2 mZv/yil	Uzoq yashovchi alfa nuklidlarning effektiv dozasi (UYaAR) - E_3 mZv/yil	Ichimlik suvida hosil bo'lgan effektiv doza E_4 mZv/yil	Yillik effektiv doza, $E_{sum} = E_1 + E_2 + E_3 + E_4$ mZv/yil
1 (10)	0,29	0,49	0,0127	0,084	0,88
2 (12)	0,27	0,42	0,0104	0,053	0,75
3 (10)	0,36	0,40	0,0154	0,072	0,85
4 (13)	0,33	0,46	0,0084	0,098	0,90
5 (8)1	0,31	0,44	0,0056	0,118	0,87

Ma'lumotlar to'plami beshta namunadan iborat bo'lib, ularning har biri tashqi gamma-nurlanish (E_1), radon konsentratsiyasi (E_2), uzoq yashovchi alfa-nuklidlar

(E_3), ichimlik suvidagi nurlanish dozasi (E_4) va yillik effektiv doza (E_{um}) o'lovchilari bilan bog'liq. Jadvalda keltirilgan natijalardan ko'rinib turibdiki tashqi gamma nurlanishidan effektiv doza (EDQ) - E_1 0,27 mZv/yil dan 0,36 mZv/yil gacha o'zgaradi, radon - (REHMA) - E_2 ekvivalent muvozanat hajmi aktivligidan effektiv doza 0,40 - 0,49 mZv/yil oralig'ida o'zgaradi. Uzoq yashovchi alfa nuklidlardan effektiv doza (UYaAR) - E_3 0,0056 mZv/yildan 0,0154 mZv/yilgacha, ichimlik suvidan effektiv doza E_4 - 0,053 mZv/yil dan 0,118 mZv/yil gacha o'zgaradi.

Tadqiqotning ahamiyati uning Zafarobod aholi punktida ichimlik suvi iste'moli orqali radiatsiya ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salomatlik xavfini tushunishga qo'shgan hissasidadir (5-jadval). Ichimlik suvidagi radionuklidlarning ($\sum\alpha$ va $\sum\beta$) nisbiy hajmli aktivligini baholash orqali biz ushbu muhim resursda nurlanish manbalari va tarqalish shakllarini aniqlashga harakat qilamiz. Bundan tashqari, ushbu aktivlik qiymatlarini atmosfera radiatsiyasi parametrlarida hisoblangan yillik ta'sir qilish dozasi quvvati bilan bog'lash orqali biz aholi boshdan kechirgan radiatsiya ta'sirining umumiy darajalari haqida ma'lumot berishga intilamiz.

Ushbu ma'lumotlarni har tomonlama tahlil qilish orqali biz nafaqat radiatsiya ta'sirining hozirgi holatini baholay olamiz, balki aholi salomatligini muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha kelajakdagi zararni kamaytirish strategiyalari va tartibga soluvchi choralar haqida ham ma'lumot berishimiz mumkin. Ushbu bo'lim keyingi bo'limlar uchun zamin yaratadi, unda batafsil metodologiyalar, natijalar va Zafarobod aholisi hududida radiatsiya ta'sirini baholash bo'yicha muhokamalar taqdim etiladi.

5 - jadval

Radiatsiya omillarini eksperimental aniqlash natijalariga ko'ra Zafarobod aholi yashash punktlarida har bir aholining yillik oladigan umumiy effektiv doza qiymatlari

No namuna soni	Tashqi gamma nurlanishining effektiv dozasi (EDQ) - E_1 mZv/yil	Radonning ekvivalent effektiv muvozanat hajmi dozasi (REHMA) - E_2 mZv/yil	Uzoq yashovchi alfa nuklidlarning effektiv dozasi (UYaAR) - E_3 mZv/yil	Ichimlik suvida hosil bo'lgan effektiv doza - E_4 mZv/yil	Yillik effektiv doza, $E_{sum}=E_1+E_2+E_3+E_4$ mZv/yil
1 (11)	0,39	0,24	0,0057	0,0045	0,63
2 (13)	0,40	0,20	0,0025	0,011	0,62
3 (10)	0,41	0,18	0,0009	0,0075	0,60
4 (11)	0,42	0,21	0,0037	0,0067	0,64
5 (8)	0,44	0,26	0,0069	0,0094	0,72

Tashqi gamma nurlanishning effektiv dozasi (E_1) beshta namunada yiliga 0.39 mZv/yil dan 0.44 mZv/yil gacha o'zgaradi. Bu tanadan tashqarida kelib chiqadigan gamma nurlanishdan olingan yillik dozani ko'rsatadi. Radonning effektiv - E_2 ekvivalent muvozanatli hajmli dozasi (REHMA) namunalar bo'yicha yiliga 0.18 mZv

- 0,26 mZv/yil oralig'ida aniqlandi. Radon tabiiy fon radiatsiyasiga sezilarli hissa qo'shadi va nafas olish mumkin, bu ichki ta'sirga hissa qo'shadi.

Uzoq yashovchi alfa-nuklidlarning effektiv dozasi (UYaAR) – E_3 : namunalar bo'yicha 0,0009 mZv/yil dan 0,0069 mZv/yil gacha o'zgargan. Alfa nurlanish odatda yutilgan yoki nafas olayotganda ko'proq zararli, chunki u to'qimalarga sezilarli zarar yetkazishi mumkin.

Ichimlik suvida hosil bo'lgan effektiv doza E_4 namunalar bo'yicha 0,0045 mZv/yil – 0,011 mZv/yil oraliqda aniqlandi. Bu radionuklidlarni o'z ichiga olgan ichimlik suvidan radiatsiya ta'sirining hissasini ko'rsatadi.

Yillik effektiv doza (E_{um}): E_1 E_2 E_3 va E_4 yig'indisi bo'lgan yillik effektiv doza (E_{um}) namunalar bo'yicha 0,60 mZv/yil dan 0,72 mZv/yilgacha o'zgarib turadi.

Bu o'rganilayotgan hududdagi shaxslar tomonidan qabul qilingan radiatsiya ta'sirining umumiy bahosini beradi.

O'rganilayotgan hududdagi radiatsiya ta'siri tabiiy fon radiatsiyasi uchun kutilgan diapazonda.

Nurota aholi yashash punktlarida radiatsiya omillarini eksperimental aniqlash natijalariga yashash punktlarida har bir aholining yillik oladigan umumiy effektiv doza qiymatlari hisoblandi (6 – jadval).

6 - jadval

Radiatsiya omillarini eksperimental aniqlash natijalariga ko'ra Nurota aholi yashash punktlarida har bir aholining yillik oladigan umumiy effektiv doza qiymatlari

№ namuna soni	Tashqi gamma nurlanishining effektiv dozasi (EDQ) - E_1 mZv/yil	Radonning ekvivalent effektiv muvozanat hajmiy dozasi- (REHMA) - E_2 mZv/yil	Uzoq yashovchi alfa nuklidlarning effektiv dozasi - (UYaAR) - E_3 mZv/yil	Ichimlik suvida hosil bo'lgan effektiv doza - E_4 mZv/yil	Yillik effektiv doza, $E_{sum}=E_1+E_2+E_3+E_4$ mZv/yil
1 (12)	0,47	0,40	0,015	0,03	0,92
2 (12)	0,43	0,45	0,012	0,023	0,91
3 (13)	0,44	0,42	0,011	0,035	0,90
4 (10)	0,41	0,41	0,01	0,02	0,85
5 (9)	0,46	0,44	0,0165	0,024	0,94

Tashqi gamma nurlanishning effektiv dozasi - (E_1): Tashqi gamma-nurlanishning effektiv dozasi (E_1) bosqichma-bosqich 4-namunada 0,41 mZv/yil ga 1-namunada 0,47 mZv/yil ga oshadi. Bu tendensiya har bir namuna joylashgan joy yaqinidagi tuproqdagi yoki qurilish materiallaridagi gamma-chiqaruvchi radionuklidlarning turli darajalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Geografik va geologik o'zgarishlar ko'pincha gamma nurlanish darajasiga ta'sir qiladi.

Radonning effektiv ekvivalent muvozanat hajmiy dozasi (E_2): 1-namunada radon dozasi 0,40 mZv/yil dan 5-namunada 0,44 mZv/yil ga bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Bu o'sish tuproqning o'tkazuvchanligi, namlik miqdori va asosiy

geologiya kabi omillar ta'sirida yerdan radon chiqarish tezligining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, binoning ventilyatsiyasi va qurilish xususiyatlari bino ichidagi radon darajasiga ta'sir qilishi mumkin.

Uzoq yashovchi alfa-nuklidlarning effektiv dozasi (E_3): Uzoq yashovchi alfa-nuklidlarning doza hissasi 1-namunada 0,01 mZv/yil dan juda past boshlanadi va 5-namunada 0,016 mZv/yil gacha oshadi. Bunday o'zgarish mahalliy tuproq yoki suv manbalarida uran va toriy kabi alfa-chiqaruvchi elementlarning konsentratsiyasidagi farqlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu ko'pincha tabiiy geologik shakllanishlar bilan belgilanadi.

Ichimlik suvida hosil bo'lgan effektiv doza (E_4): Ichimlik suvining effektiv dozasi, shuningdek, 1-namunadan 5-namunagacha 0,02 mZv/yil dan 0,035 mZv/yil gacha ortish tendensiyasini ko'rsatadi. Bu suv manbasining sifati va suvda radionuklidlar mavjudligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Suv ta'minotidagi radonning parchalanishi va tabiiy yoki sun'iy materiallardan radionuklidlarning suvga yuvilishi kabi omillar bu darajalarga ta'sir qilishi mumkin.

Yillik effektiv doza (E_{sum}): Har bir namuna uchun yig'ilgan yillik effektiv doza yiliga 0,90 mZv dan 0,94 mZv/yilgacha oshadi. Barcha o'lchangan manbalardan dozani oshirishning jami ta'siri radionuklid aktivligining barqaror o'sishini yoki ma'lum namunalarda radon yoki gamma nurlanish kabi o'ziga xos hissa qo'shadigan mahalliy omillarni ko'rsatadi.

